# 2022– yilning yanvar– mart oylarida Surxondaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022– yilning yanvar– mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 2 434,6 mlrd. so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 2 385,6 mlrd. so‘mni (103,9 %), o‘rmon xo‘jaligi – 44,6 mlrd. so‘mni (101,0 %), baliqchilik xo‘jaligi – 4,4 mlrd. so‘mni (68,1 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Surxondaryo viloyatining ulushi 7,3 % ni tashkil etdi.




**2 434,6** — Surxondaryo viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m




**2 385,6** — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

**44,6** — O‘rmon xo‘jaligi

**4,4** — Baliqchilik

# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2022– yilning yanvar– mart yakunlariga koʻra, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 98,0 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar, 1,8 % i – oʻrmon xoʻjaligi, 0,2 % i – baliqchilik xoʻjaligi hissasiga toʻgʻri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2022- yilning yanvar- mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining eng yuqori hajmi Denov (380 mlrd. soʻm) va Uzun (236 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Oltinsoy (59 mlrd. soʻm), Bandixon tumani (41 mlrd. soʻm) va Termiz shahri (7 mlrd. soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

Viloyat koʻrsatkichidan (103,8 %) yuqori oʻsish surʼatlari Sherobod (120,1 %), Termiz (109,3 %), Muzrabot (105,1 %), Oltinsoy va Denov tumanlarida (103,8 %) kuzatildi. Angor (102,5 %), Jarqoʻrgʻon va Bandixon tumanlarida (102,2 %), Boysun (101,6 %), Sariosiyo (101,2 %), Shoʻrchi (101,1 %), Uzun (100,6 %), Qumqoʻrgʻon (100,4 %), Termiz shahrida hamda Qiziriq tumanlarida (100,3 %) esa aksincha oʻsish surʼatlari pastligi kuzatildi.

# Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2022– yilning yanvar– mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 2 367,1 mlrd. so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 361,5 mlrd. so‘mni (117,4 %), chorvachilik mahsulotlari – 2 005,6 mlrd. so‘mni (101,7 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 85,6 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 8,4 % i – fermer xo‘jaliklariga, 6,0 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2022– yilning yanvar– mart oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Denov tumanida (30,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Termiz shahrida (99,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Termiz tumanida (43,0 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Qizizriq tumanida (0,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Termiz tumanida (54,8 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Boysun va Qiziriq tumanlarida (0,2 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2021– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 361,5 mlrd. so‘mni yoki 2021–yilning mos davriga nisbatan 117,4 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 15,3 % ni tashkil qildi.

## Kartoshka

**Hajmi, ming t.**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2022– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 0,6 ming t. kartoshka ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 87,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna




## Sabzavotlar

Hajmi, ming t.




O‘sish sur’ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar– mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 24,3 ming t. sabzavot (2021– yilning yanvar– martiga nisbatan 25,6 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 54,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha sabzavot yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2022– yilning yanvar – mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2 005,6 mlrd. so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 84,7 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2022– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 35,2 ming t. go‘sht (2021– yilning yanvar – martiga nisbatan 1,9 % ga ko‘p), 140,1 ming t. sut (2,0 % ga ko‘p), 106,7 mln. dona tuxum (6,5 % ga ko‘p), 74,0 t. jun (5,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 199,3 t. baliq (37,9 % ga kam) ovlandi.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 35,2 ming t. go‘sht (2021– yilning yanvar – martiga nisbatan 1,9 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 140,1 ming t. sut (2021– yilning yanvar – martiga nisbatan 2,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna



# Tuxum

Hajmi, mln. dona




O‘sish sur’ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi






2022– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 106,7 mln. dona tuxum (2021– yilning yanvar – martiga nisbatan 6,5 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 57,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Surxondaryo viloyati bo'yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

Hajmi, t.




O‘sish sur’ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 199,3 t. (2021– yilning yanvar – martiga nisbatan 37,9 % ga kam) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 45,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari hissasiga to‘g‘ri kelganini ta‘kidlash lozim.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022– yining 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,9 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 92,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 18,6 % i fermer xo‘jaliklariga, 78,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi, otlar umumiy sonidan 24,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 72,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,3 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 7,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 54,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 37,8 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2022– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 996,7 ming boshga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 28,9 ming boshga (3,0 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 396,3 ming boshga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 10,3 ming boshga (2,9 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2022– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 93,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 467,1 ming boshga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 70,9 ming boshga (3,0 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2022– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 78,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 15 152 taga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 738 taga (5,1 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 72,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2022– yilning 1– aprel holatiga koʻra, parrandalarning umumiy bosh soni 5 283,1 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xoʻjaliklarda parrandalar bosh soni – 4,1 mingtaga (0,1 %) koʻpaydi.

## Parrandalar

Soni, ming bosh




Oʻsish sur'ati




Bosh sonining xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi






2022– yilning 1– aprel holatiga koʻra, parrandalar bosh soni toʻgʻrisidagi ma'lumotlar xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 54,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga toʻgʻri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi
• 76-225-65-78